Mamlakatimizda chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalalar faoliyatini rivojlantirish.....	758
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Shuxratov Azizbek A'zamjon o'g'li	
Qurilgan organik mevalar eksportini rivojlantirishda yashil marketing strategiyalaridan foydalanish.....	764
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari.....	769
Ernazarov Gulam Bekbayevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Ernazarov Gulam Bekbayevich

Toshkent shahridagi "Moskva Energetika Instituti"
milliy tadqiqot universiteti" Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali
"Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi boshlig'i, iqtisodiyot fanlar nomzodi (PhD).

ORCID: 0009-0001-1596-4393

E-mail: gulomernazarovgb@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining mazmun-mohiyati ochib berilib, uning asosiy ko'rsatkichlari va rivojlanish istiqbollari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ahamiyati, uning YAIM dagi ulushi va asosiy ko'rsatkichlari statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, aholiga sifatli xizmat ko'rsatish, ijtimoiy soha, konsalting xizmatlari, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholi turmush sharoiti, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar, xalqaro tajriba, xususiy sektor.

Abstract: The article reveals the essence of the service sector, studies its main indicators and development prospects. The role and importance of the service sector in the national economy, its share in GDP and main indicators are also statistically analyzed.

Key words: sphere of services, provision of quality services to the population, social sphere, consulting services, housing and communal services, living conditions of the population, healthcare and social services, per capita services, international experience, private sector.

Аннотация: В статье раскрывается сущность сферы услуг, изучаются ее основные показатели и перспективы развития. Также статистически проанализированы роль и значение сферы услуг в национальной экономике, ее доля в ВВП и основные показатели.

Ключевые слова: сфера услуг, качественное обслуживание населения, социальная сфера, консультационные услуги, жилищно-коммунальное хозяйство, условия жизни населения, здравоохранение и социальные услуги, услуги на душу населения, международный опыт, частный сектор.

KIRISH

Jahon tajribasidan ma'lumki, xizmat ko'rsatish sohasida kam xarajat bilan tez muddatda biznesni yo'lga qo'yish, daromadlarining real o'sishini ta'minlash hamda yangi ish o'rinlarini boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq tashkil etish mumkin. Shunday ekan, O'zbekistonda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar doirasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga, aholiga sifatli xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham iqtisodiyotning eng muhim sektorlari sifatida ko'plab yo'nalishlar jamlangan xizmatlar sohasining ahamiyati juda katta va dolzarbdir. Bu, avvalo ishlab chiqarishning murakkablashishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi, jamiyat hayotiga yangiliklar kirituvchi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Bularning barchasi axborot, moliyaviy, transport, konsalting xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlar mavjudligini taqozo etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ—78-sonli¹ qarorining qabul qilinishi sohaning milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimligini ko'rsatib bermoqda [1].

Ushbu qarorga muvofiq, 2025-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;
- sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash;
- 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish.

¹ <https://lex.uz/docs/-7408455>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-104-son² qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

2025-yilda sohaga quyidagi miqdorida kredit mablag'lari yo'naltiriladi:

- xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so'm;
- xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so'm.

Hududlarda 2025 yilda quyidagi 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta'minlash uchun 1 trillion so'm yo'naltiriladi:

- 72 ta sohil bo'yi dam olish maskanlari;
- 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog'lari;
- 154 ta tun-u kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo'nalishlarga ixtisoslashgan savdo va ko'ngilochar ko'chalar;
- 364 ta yo'l bo'yi va boshqa servis obyektlari.

Demak, xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi omillari tashkil etadi. Iqtisodiyotning bu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borishgan va borishmoqda, ular mazkur sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Jumladan, Y.V.Meleshko ilmiy maqolasida "XX asr oxiri - XXI asr boshlari iqtisodiyotidagi eng yorqin tendensiyalardan biri xizmat ko'rsatish sohasining yuqori suratlarda rivojlanishi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishi – asosi 18-asrning oxiridan boshlab mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishi o'z o'rnini xizmat ko'rsatish sohasiga bo'shatib berdi, shu sababli jahon iqtisodiyotida sanoat inqilobi bilan taqqoslanadigan tarkibiy qayta qurish sodir bo'ldi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mezoniga aylandi" deb, ta'rif berib o'tadi[8].

M.Katels iqtisodiyotining axborot va axborotlashtirish bilan bog'lik xususiyatlariga e'tibor berib, xizmatlarni yangicha tavsifga egaligi va xizmatlarni ko'rsatishda faoliyatning yangi ko'rinishlarini tadqiq etgan. Uning fikricha, xizmatlar kategoriyasi tarixan turli xil ijtimoiy tuzilmalar va ishlab chiqarish tizimlaridan shakllanib kelayotgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish sohasida rang-barang faoliyat turlarini birlashtirib turuvchi yagona belgi ushbu yagona (umumiy) belgining yo'qligidir. Xizmatlarni ularga tegishli bo'lgan ichki xususiyatlardan kelib chiqib aniqlashda shuni aytish kerakki, axborot iqtisodiyotining rivojlanishi bilan tovarlarning «nomoddiyligi» va «moddiyligi» o'rtasida mazmunan farqi yo'qoldi deb izoh beradi[7].

Yevropa davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan «xizmat» kategoriyasiga qo'yidagicha ta'rif berilgan: xususan, F.Kotler xizmatlar deganda yirik xilma-xillikdagi faoliyat turlari va tijorat mashg'ulotlarini ta'riflab, ular «bir taraf ikkinchi tarafga taklif qilishi mumkin va asosan ularni his qilib bo'lmaydi hamda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. Xizmatlarni ko'rsatish moddiy ko'rinishdagi tovar bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki aksincha bog'liq bo'lmasligi ham mumkin» deb ta'kidlab o'tadi [10].

Neoklassik maktab vakili Alfryed Marshall xizmatlar to'g'risida ancha dadil va shu bilan bir qatorda, mantiqan asoslangan fikrlarni maydonga tashlagan va xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslarini shakllantirishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. U xizmatlarni mehnatning nomoddiy, sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalari sifatida talqin qilgan. Aynan, A.Marshall bapcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning barchasi mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibor qaratgan. U birinchi bo'lib, insonning hayot faoliyatida va ehtiyojini qondirishda moddiy noz-ne'matning o'ta muhim va zarur ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, kuz bilan ilg'ab bo'lmaydigan turli nomoddiy noz-ne'matlar va xizmatlarning ham katta ahamiyati borligini ilmiy jihatdan asoslab berdi [9].

T.D. Burmenkoning bergan ta'rifiga ko'ra: «xizmat - bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir». Shuning uchun xizmat ko'rsatish jarayoni iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya'ni unga har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kepak [6].

² <https://lex.uz/docs/-5840284>



J.P. Upakov mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishini hozirgi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo'yilayotgan talablar bilan bog'liq deb, ta'rif beradi[12].

G.B.Ernazarov "Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari" deb nomlangan maqolasida mamlakatimizda xizmatlar sohaning rivojlanishi, bu iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliya, sug'urtalash xizmatlariga talabning 1 million so'mga o'sishi iqtisodiyotda qo'shimcha 3,2 million so'm qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta'sirga ega bo'lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kiritisa bo'ladi deb, ta'kidlab o'tadi[13].

Bugungi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda, xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati: uning statistik tahlili: muammolari va ularning yechimlari haqida, boshqa ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yoritishda bevosita statistik tanlanma kuzatuv, mantiqiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, analitik tahlil, statistik kuzatuv va qiyosiy tahlil usullardan atroflicha foydalanildi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, xizmatlar sohasining istiqbollari, iqtisodiy ko'rsatkichlari, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va sohadagi muammolar o'rganilib, ular nazariy jihatdan yoritib berishga harakat qilindi. Tadqiqot ishimizda xizmat ko'rsatish sohasini va uning asosiy ko'rsatkichlarini rivojlantirishning yo'nalishlari statistik tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida xizmat ko'rsatish sohasi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 27-maydagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"da PF—104-sonli Farmonida "2021—2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga o'sdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022-yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo'shimcha 1,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjud, deb ta'kidlab o'tdi" [3].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish hisobiga respublikamiz aholisiga sifatli xizmat ko'rsatishning aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish, statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va istiqbollari statistik prognozlashni talab etadi. Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, soha faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks statistik baholash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi 6,8 % ni tashkil etdi va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,1 % ni tashkil etdi va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmining o'sishi 8,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 7,7 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 11,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 13,4 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 % ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 3,3 f.p.ni tashkil qildi. Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,0 % ga o'sdi va uning YAIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p.ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 818 428,3 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 20,6 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,4 punkt), savdo xizmatlari 11,8 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 25,8 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), transport xizmatlari 8,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 13,4 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (183 314,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 %ga yetdi), savdo xizmatlari (149 599,8 mlrd so'm, 111,8 %), transport



xizmatlari (145 124,4 mlrd so'm, 108,6 %) va moliyaviy xizmatlar (135 509,5 mlrd so'm, 120,6 %)ga to'g'ri keladi.

2024-yil (yanvar-dekabr) holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi - 57,0 foizni, xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlarining ulushi - 73,2 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotning yangi rivojlanish davrida xizmatlar sohasini rivojlantirish ko'p jihatdan hududlarda ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-dekabr)

T/r	Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
1.	O'zbekiston Respublikasi	818 428,3	100,0	112,9
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	28 820,8	3,5	110,6
	Viloyatlar			
3.	Andijon viloyati	41 807,5	5,1	113,1
4.	Buxoro viloyati	34 495,1	4,2	111,2
5.	Jizzax viloyati	20 069,5	2,5	113,8
6.	Qashqadaryo viloyati	43 255,9	5,3	110,9
7.	Navoiy viloyati	20 055,6	2,4	112,1
8.	Namangan viloyati	43 090,6	5,3	112,3
9.	Samarqand viloyati	58 875,7	7,2	114,1
10.	Surxondaryo viloyati	28 505,9	5,3	110,9
11.	Sirdaryo viloyati	11 609,1	1,4	112,2
12.	Toshkent viloyati	56 317,9	6,9	112,8
13.	Farg'ona viloyati	55 200,7	6,7	112,3
14.	Xorazm viloyati	28 262,0	3,5	112,0
15.	Toshkent shahri	298 825,6	36,5	116,8

Hududlar kesimida (1-jadval ma'lumotlari) ko'rsatilgan bozor xizmatlarini oladigan bo'lsak 2024-yil yanvar-dekabr holati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahar (298 825,6 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (11 609,1 mlrd.so'm), Jizzax (20 069,5 mlrd. so'm), Navoiy (20 055,6 mlrd. so'm) va Xorazm (28 262,0 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Toshkent shahrida bu ko'rsatkichning yuqoriligiga asosiy sabablardan biri ham raqamli iqtisodiyotning shaharda tez rivojlanishidir. Demak xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun birinchi navbatda aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish xulq-atvorini shakllantirish va sifatli internet tarmoqlari bilan ta'minlash zarurdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda, Toshkent shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo va transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan.

2024-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, jami xizmat ko'rsatish hajmida savdo xizmatlarining ulushi 149 599,8 mlrd so'mni, transport xizmatlarining ulushi esa 145 124 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu borada, yana yuqori ko'rsatkichlar, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ulushi 135 509,5 mlrd so'mni, avtotransport xizmatlari esa 72 604,7 mlrd so'mni aloqa va axborot xizmatlarining 56 174,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

Agar 2024-yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibini statistik o'rganib chiqadigan bo'lsak, "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari 22,4 % ni egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2017—2024-yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasi barqaror rivojlanib, iqtisodiyot, bandlik va hayot sifati o'sishida muhim omilga aylandi. Bu davrga kelib, xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari Markaziy Osiyodagi eng yuqori natijalardan biriga aylangan. Jahon bankining baholashiga ko'ra, 2017—2024-yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati yillik 6,5 foizni tashkil qilib, Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkich qayd etildi.



Xizmatlar sohasi bo'yicha xalqaro reytinglarda ham O'zbekiston natijalari yaxshilandi. Xususan, Kearney xalqaro indeksda O'zbekiston 40-o'rinni, raqamli boshqaruv bo'yicha esa 43-o'rinni egalladi. Elektron ishtirok indeksida mamlakat 53-o'ringa ko'tarildi.

Demak, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish (servis)ni rivojlantirish strategiyasiga bugun har qachongidan-da ko'proq ehtiyoj bor. Maqsad – ishlab chiqilayotgan strategiya doirasida YAIMda soha ulushini kamida 80 foizga olib chiqish, shu bo'yicha yo'l xaritasini tuzish hamda unda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaymiz:

Strategiyada dolzarb vazifa sifatida, xizmat ko'rsatish (servis)ni taraqqiy ettirishning mavjud huquqiy asosi o'zini oqlamaganini e'tirof etgan holda:

- eng ilg'or davlatlarning bu boradagi norma ijodkorligini tadqiq qilish;
- milliy qonunchilimizdagi ayni shu bo'g'inni tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqish;
- to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi, xalqaro standartlar talablariga to'la javob beradigan soha qonunchiligining

yaxlit asosini yaratish, jumladan, O'zbekiston Respublikasining xizmat ko'rsatish (servis) kodeksi loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko'rsatish (servis) sohasini rivojlantirishda ma'muriy usuldan butunlay voz kechish, faoliyatga bozor mexanizmlarini, "aqlli boshqaruv"ni joriy etishga qaratilgan Ilmiy-amaliy maslahat markazi faoliyatini yo'lga qo'yish. Bunda asosiy e'tibor xizmat ko'rsatish (servis)ni axborot va bilim yaratishning nazariy, amaliy qo'llanmasini ishlab chiqish, amaliy ko'nikmalarning asoslarini yaratish va tatbiq etishga qaratilishi lozimdir.

Buning natija ularoq, O'zbekistonda 2024-yil yakunlari bo'yicha xizmatlar eksporti 7,2 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 6 barobar ko'p bo'lib, umumiy eksport hajmining 26,7 foizini tashkil qildi. Eksportning asosiy qismini turizm va transport xizmatlari egalladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-sonli Qarori. // <https://lex.uz/docs/-7408455>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022—2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/-5840284>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/-5421233>
6. Бупменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бупменко, Н.Н. Даниленко, Т.А. Тупенько; под ред. Т.Д. Бупменко. - Москва: КНОПУС. - 328 с. - С. 64-65.
7. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пеп. с англ. Под. педь. О.И. Шкапатана - М.: ГУВШЕ, 2000.
8. Ю.В. Мелешко «Трансформация определения понятия «услуги» в контексте концепции постиндустриального общества» // Россия: Интернет-журнал «Экономическая наука сегодня» №4. 2016 г.
9. Альфпайд Маршалл. Принципы экономической науки. - М.: «Погопъес,» 1993.
10. Котлеп Ф. Основы маркетинга. - М.: Прогресс, 1993. - С.63 8.
11. Muhammedov M.M. "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish - ustuvor masala". Servis jur. №1, 2009.- 47-56 b.
12. Botirova R., Ikromov I. Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari. №11(119)-2017. <http://www.biznesdaily.uz>
13. Ernazarov G.B. "Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari" maqola : // Iqtisodiyot va ta'lim, 2024, № 1.– B.424-430.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>